

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN KARDIOLOGIYA ILMIY-  
AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.09.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN KARDIOLOGIYA ILMIY-  
AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**DUYSEN BAYEVA AZIZA IXTIYAR QIZI**

**ARTERIAL GIPERTENZIYA VA SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI  
BO‘LGAN BEMORLARDA ARTERIAL QATTIQLIKNING KLINIK VA  
DIAGNOSTIK AHAMIYATI**

**14.00.06 – Kardiologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Duysenbayeva Aziza Ixtiyar qizi**

Arterial gipertenziya va surunkali buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda arterial qattqlikning klinik va diagnostik ahamiyati.....3

**Дуйсенбаева Азиза Ихтияр кизи**

Клинико-диагностическое значение артериальной жесткости у больных с артериальной гипертензией и хронической болезнью почек.....21

**Duysenbaeva Aziza Ikhtiyarovna**

Clinical and diagnostic significance of arterial stiffness in patients with arterial hypertension and chronic kidney disease.....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published work.....42

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN KARDIOLOGIYA ILMIY-  
AMALIY TIBBIYOT MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.09.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN KARDIOLOGIYA ILMIY-  
AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**DUYSEN BAYEVA AZIZA IXTIYAR QIZI**

**ARTERIAL GIPERTENZIYA VA SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI  
BO‘LGAN BEMORLARDA ARTERIAL QATTIQLIKNING KLINIK VA  
DIAGNOSTIK AHAMIYATI**

**14.00.06 – Kardiologiya**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Tib2409 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.cardiocenter.uz](http://www.cardiocenter.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))da joylashtirilgan.

|                            |                                                                                                                                                           |
|----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ilmiy rahbar:</b>       | <b>Srojidinova Nigora Zaynutdinovna</b><br>Tibbiyot fanlari doktori                                                                                       |
| <b>Rasmiy opponentlar:</b> | <b>Nurullaeva Nargiza Muxtarxanovna</b><br>Tibbiyot fanlari doktori, professor<br><b>Sobirov Maksud Atabaevich</b><br>Tibbiyot fanlari doktori, professor |
| <b>Yetakchi tashkilot:</b> | <b>Tibbiyot Xodimlarining Kasbiy Malakasini Rivojlantirish Markazi</b>                                                                                    |

Dissertatsiya himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi DSc.06/2025.27.12.Tib.09.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «\_\_»\_\_\_\_\_soat\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi 4-uy. Tel./Faks (99871)237-31-57, e-mail: [cardiocenter@ssv.uz](mailto:cardiocenter@ssv.uz))

Dissertatsiya bilan Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100052, Toshkent Mirzo Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi, 4-uy. Tel./Faks (99871)237-31-57.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «\_\_»\_\_\_\_\_tarqatildi. 2026 yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_raqamli reyestr bayonnomasi

**R.D.Kurbanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, akademik

**G.U.Mullabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlar doktori

**A.B.Shek**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati.** Arterial gipertenziya (AG) butun dunyoda keng tarqalganligi va asoratlarining yuqori chastotasi tufayli muhim tibbiy-ijtimoiy muammo hisoblanadi. «...JSST ma'lumotlariga ko'ra, katta yoshdagi aholining 30-45% AGdan aziyat chekadi»<sup>1</sup>, «...o'lim holatlarining 30% esa yuqori qon bosimi sababli yuz beradi...»<sup>2</sup>. AG yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) va nishon a'zolar shikastlanishining, xususan, surunkali buyrak kasalligi (SBK) rivojlanishining muhim xavf omillaridan biri sifatida qaraladi. Bugungi kunda «...AG va qandli diabet SBKning yetakchi sabablaridan hisoblanadi...»<sup>3</sup>. Populyatsion registrlar ma'lumotlariga ko'ra, YQTK va QD bo'lmaganda buyrak disfunktsiyasining tarqalishi 6,8%, AG mavjud bo'lganda - 15,2% tashkil etadi, AG va QD birgalikda kelganda esa 43%ga ko'tariladi. «...Yuqori qon bosimi, koptokchalar filtratsiyasi tezligi (KFT)ning biroz pasayishi va albuminuriya paydo bo'lishi yurak-qon tomir va umumiy o'lim xavfining oshishi bilan bog'liq»<sup>4</sup>. Shu sababli, SBK markerlarini erta aniqlash, arterial bosimni maqsadli darajasiga yetkazishga qaratilgan davolashni optimallashtirish, nefroproteksiya, AGda arteriyalar elastikligini yaxshilash kardiologiyada dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Jahonda YQTK bilan og'rigan bemorlarda erta tashxis qo'yish, davolash usullari va samaradorligini oshirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. AGda SBK markerlarining tarqalishini o'rganish va turli antigipertenziv dori vositalari kombinatsiyalarining organoprotektiv samaradorligini tadqiq etish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. AG bilan og'rigan bemorlarda buyrakning ekskretor funksiyasi buzilishlarini erta aniqlash usullarini takomillashtirish, shuningdek, SBK rivojlanish mexanizmida muhim bo'g'in hisoblangan qon tomir devori elastikligi buzilishini tashxislash muhim ahamiyatga ega. Magistrat qon tomirlar qattiqligini o'rganish va shu orqali AG va SBK bilan og'rigan bemorlarni patogenetik davolashni takomillashtirish mutaxassislar oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, tibbiy xizmat tizimini jahon talablariga moslashtirish, jumladan YQTK erta tashxislash orqali uning asoratlarini kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida YQTK asoratlarini va o'lim darajasini kamaytirish, shuningdek, nogironlikni kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash maqsadida tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash

<sup>1</sup> Kobalova J. D., Kotovskaya Yu. V. XXI asrda arterial gipertenziya: yutuqlar, muammolar, istiqbollar. - 2015

<sup>2</sup> Badin Yu. V. va boshq. EPOXA-AG 1998–2017 yy.: RF Yevropa qismida arterial gipertenziya tarqalishi, u haqidagi xabardorlik, davolanish qamrovi va arterial bosimni samarali nazorat qilish dinamikasi: 1S // Kardiologiya. 2019. 59-jild, № 1S. 34–42-b.

<sup>3</sup> Bansal N. va boshq., 2014; O'Lone E., 2016

<sup>4</sup> Go A.S. va boshq., 2004; Van Biesen W., 2007

tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar", 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103-son "Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari VI. "Tibbiyot va farmakologiya" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qon bosimining ko'tarilishi YQTK, shu jumladan o'linga olib keladigan holatlar xavfini oshiradi. Nishon a'zolarining zararlanish darajasi, xususan «...SBK rivojlanish xavfi to'g'ridan- to'g'ri sistolik qon bosimi darajasiga bog'liq...»<sup>5</sup>. Essensial AGda nishon a'zo sifatida buyrak zararlanishining asosiy patogenetik mexanizmi arteriolosklerotik nefroskleroz bo'lib, u tomir qattiqligining oshishi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda kardiologiya amaliyotida tomirlarni remodellanish markeri sifatida tomir devorining qattiqligini baholash usuli qo'llaniladi. Arteriyalarning elastik xususiyatlarini o'rganish uchun RACE, PREVENT, CARE kabi epidemiologik tadqiqotlarda qo'llanilgan puls to'lqinining tarqalish tezligi (PTTT) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Arterial qattqlik va buyrak zararlanishi o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Jumladan, Bauchi va boshqalarning prospektiv kuzatuvda «...PTTT va KFT o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik qayd etilgan...»<sup>6</sup>. Shuningdek, AVS salomatligi tadqiqotida ishtirok etgan 2129 nafar keksa bemorda arterial qattqlikning buyrak funksiyasi pasayishiga ta'siri o'rganilgan, ularda o'rtacha KFT 79 ml/min/1,73m<sup>2</sup> ni tashkil etgan. O'rtacha KFT 91 ml/min/1,73m<sup>2</sup> bo'lgan 577 nafar 2-tur QD bilan og'rigan bemorlar ishtirok etgan prospektiv tadqiqotda yelka-to'piq PTTT va KFT o'rtasida teskari aloqa aniqlangan<sup>7</sup>. KFT pasayishining yuqori sur'ati yelka-to'piq PTTT yuqori ko'rsatkichlari bo'lgan 2053 nafar bemorda kuzatildi, ularda 5-6 yillik kuzatuv boshida buyraklarning normal funksiyasi va albuminuriya yo'qligi qayd etilgan<sup>8</sup>. Arterial qattqlik va SBK o'rtasidagi bog'liqlikka bag'ishlangan barcha tadqiqotlarga asoslanib, qon tomirlarining elastik xususiyatlarini yaxshilash AG va SBK bilan og'rigan bemorlarning prognozini sezilarli darajada yaxshilashga olib kelishi mumkinligini taxmin qilish mumkin.

O'zbekistonda YQTKni erta aniqlash, davolash va oldini olish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, SBK va YQTK muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlar bir qator olimlar tomonidan o'tkazilgan. SBK bilan og'rigan bemorlarda

<sup>5</sup> Muromseva G.A. va boshq., 2014

<sup>6</sup> Bouchi R., Babazono T., Mugishima M. va boshq. Arterial qattqlik 2-tur qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda albuminuriya va glomerulyar filtratsiya tezligining pasayishi bilan bog'liq // Diabetes Care. 2011. V. 34. P. 2570-2575

<sup>7</sup> Sheen Y.J., Lin J.L., Li T.C. va boshq. Periferik arterial qattqlik 2-tur qandli diabetli bemorlarda glomerulyar filtratsiya tezligining tez pasayishi bilan mustaqil ravishda bog'liq // Biomed. Res. Int. 2013. V. 2013. P. 294-309

<sup>8</sup> Tomiyama H., Tanaka H., Hashimoto H. va boshq. Arterial qattqlik va normal buyrak funksiyasi/erta surunkali buyrak kasalligi bo'lgan shaxslarda pasayishlar // Atherosclerosis. 2010. V. 212. P. 345-350

yurak-qon tomir tizimining strukturaviy va funksional qayta modellanishini o'rganish va turli xil davolash sxemalarining samaradorligini baholash Sobirov M.A. tomonidan amalga oshirilgan. Azilsartanning indapamid va nitrendipin bilan kombinatsiyalangan antigipertenziv terapiyasi bilan davolangan AG bilan og'riq bemorlarda buyrak funksiyasini baholash Mashkurova Z.T. tadqiqotida o'rganilgan. Sh.S. Abdullayeva va M.M. Karimova tadqiqotlarida SBE bilan diabetik nefropatiya bilan og'riq bemorlarda kunlik qon bosimi profili ko'rsatkichlari va kompleks davolash samaradorligini baholash o'rganilgan.

Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Respublikada AG bilan og'riq bemorlarda buyrak zararlanishining bevosita patogenetik omili sifatida qon tomir remodellanishining xususiyatlarini, xususan, qon tomir qattiqligini o'rganish yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligi va muhimligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** AG bilan og'riq bemorlarda buyraklarning funksional holatiga ko'ra arterial qattiqlikning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

AG bilan og'riq bemorlarda SBK belgilarining tarqalishini o'rganish.

AG bilan og'riq bemorlarda arterial qattiqlik va arterial bosimning sutkalik profilini hamda ularning buyraklarning funksional holati bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish.

AG va SBK bilan og'riq bemorlarda markaziy gemodinamika ko'rsatkichlari va biokimyoviy belgilarning xususiyatlarini o'rganish.

AG va SBK bo'lgan bemorlarda perindopril va indapamidning doimiy kombinatsiyasining antigipertenziv va nefroprotektiv samaradorligini baholash.

AG va SBK bo'lgan bemorlarda chap qorincha remodellanishi va qon tomir qattiqligiga perindopril va indapamidning doimiy kombinatsiyasi bilan o'tkazilgan antigipertenziv terapiyaning ta'sirini baholash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining "Kardiometabolik buzilishlar va endokrinologiya" bo'limida AG bilan statsionar davolangan 1070 nafar bemor olindi.

**Tadqiqotning predmeti:** jismoniy tekshiruv; arterial bosimning sutkalik profilini aniqlash; yurakning strukturaviy-funksional parametrlarini baholash; umumiy uyqu arteriyalarining intima-media kompleksini baholash; mintaqaviy va tizimli qon tomir qattiqligi darajasini aniqlash orqali tomirlarning elastik xususiyatlarini baholash; qonning biokimyoviy profilini baholash; buyrak funksiyasini baholash.

**Tadqiqotning usullari:** barcha bemorlarda klinik holatni baholash, EKG, arterial bosimning sutkalik monitoringi, exokardiografiya, uyqu arteriyalarining dopplerografiyasi, applanatsion tonometriya, biokimyoviy tadqiqot usullari, shuningdek, statistik tahlil o'tkazildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

AG va CBK S3b-S5 bo'lgan bemorlarda o'rtacha sutkalik va kunduzgi SABning oshishi bilan bog'liq bo'lgan "night-picker" sutkalik AB profili ustunlik qilishi, albuminuriyaning A3 darajasida esa - SAB va DABning bir vaqtning o'zida oshishi ko'rsatilgan.

Ilk bor hKFT pasayishi va albuminuriya (AU) ortishining arterial rigidlik ko'rsatkichlari (mSAB, mDAB, mPB, PTTT) ortishi bilan progressiv bog'liqligi, shu jumladan hKFT va AUning PTTT o'sishiga qo'shgan hissasini miqdoriy baholash aniqlangan.

PTTT tezlashishi bilan bog'liq bo'lgan hKFT va AU chegaraviy qiymatlari aniqlangan.

AG va SBK bilan og'rigan bemorlarda perindopril/indapamidning fiksatsiyalangan kombinatsiyasining yuqori antigipertenziv, nefro- va vazoprotektiv samaradorligi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

AG va SBK bilan og'rigan bemorlar uchun PTTT va tomir yoshini aniqlash tavsiya etiladi.

Tomir yoshini aniqlash uchun "Tomir Yoshi" kalkulyatori tavsiya etiladi.

AG va SBK bilan og'rigan bemorlarda qon tomir elastikligini yaxshilash uchun perindopril va indapamid bilan ikkitali terapiya tavsiya etiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** to'g'ri to'plangan nazariy ma'lumotlar, bemorlar sonining yetarliligi, tadqiqotni o'tkazishga uslubiy jihatdan to'g'ri yondashilganligi, shuningdek, klinik-biokimyoviy va instrumental tadqiqotlarning raqamli ma'lumotlarini qayta ishlashda zamonaviy statistik usullardan foydalanilganligi bilan asoslanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, birinchi marta AG bilan og'rigan bemorlarda SBK tarqalishi o'rganildi. Buyrak shikastlanishi bo'lgan bemorlarda arterial bosimning sutkalik monitoringi (ABSM), applanatsion tonometriya ko'rsatkichlarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi. Perindopril/indapamidning fiksatsiyalangan kombinatsiyasining antigipertenziv, buyrak va qon tomir himoyalovchi samaradorligi isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati AG bilan og'rigan bemorlarda biokimyoviy tekshiruvlar, exokardiografiya va applanatsion tonometriya yordamida buyrak shikastlanishi va qon tomir elastikligi buzilishi belgilarini o'z vaqtida aniqlash zarurligida namoyon bo'ladi. AG va SBK bilan og'rigan bemorlarda arterial bosimni tungi pasayishini aniqlash bilan ABSMni o'tkazish AG davolovchi terapiyani to'g'ri tanlashga yordam beradi, bu shubhasiz davolash samaradorligini oshiradi va bemorlar uchun kasallik kechishini yaxshilaydi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2025-yil 20-iyundagi yig'ilishining №20-sonli bayonnomasi hamda ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish to'g'risidagi №20/40-sonli xulosasiga asosan:

*Birinchi ilmiy yangilik:* AG va CBK S3b-S5 bo'lgan bemorlarda o'rtacha

sutkalik va kunduzgi SABning oshishi bilan bog'liq bo'lgan "night-picker" sutkalik AB profili ustunlik qilishi, albuminuriyaning A3 darajasida esa - SAB va DABning bir vaqtning o'zida oshishi ko'rsatilgan. AG va SBK bilan bemorlarda arterial bosimning sutkalik profilini organish yondashuvlari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy kardiologiya markazi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2024-yil 29-maydagi №6-sonli axborot xati bilan tasdiqlangan «Arterial gipertenziya va surunkali buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda perindopril va indapamidning kombinatsiyalangan terapiyasining klinik samaradorligi» metodik tavsiyalar mazmuniga kiritildi. Ko'rsatilgan takliflar RIKIATMning Toshkent viloyati filiali 26.08.2024-yildagi №54-sonli buyrug'i va RIKIATMning Sirdaryo mintaqaviy filialining 28.09.2024-yildagi №75-sonli buyrug'i asosida amaliyotga joriy etildi. Ijtimoiy samaradorlik: AG va SBK bo'lgan bemorlarda erta tashxis qo'yish va davolash taktikasini tanlashga yordam beradi, asoratlar va nogironlik rivojlanishining oldini oladi. Iqtisodiy samaradorlik: AG va SBK bo'lgan bemorlarni erta tashxislash va davolashda differensial yondashuv sog'liqni saqlash resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi va har bir bemorga o'rtacha 128571 so'mga umumiy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

*Ikkinchi ilmiy yangilik:* Ilk bor hKFT pasayishi va albuminuriya ortishining arterial rigidlik ko'rsatkichlari (mSAB, mDAB, mPB, PTTT) ortishi bilan progressiv bog'liqligi, shu jumladan hKFT va AUning PTTT o'sishiga qo'shgan hissasini miqdoriy baholash aniqlangan. KFT har 1 ml/daq/1,73m<sup>2</sup> ga kamayganda, PTTT 0,001 m/s ga oshadi. AU har 1 mg/l ga ortganda, PTTT 0,003 m/s ga oshadi. Qon tomir devori qattiqligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi markaziy bosim, augmentatsiya indeksi va PTTT pasayishida namoyon bo'ldi. Taklif etilgan diagnostika taktikasi yondashuvlari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy kardiologiya markazi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2024-yil 29-maydagi №6-sonli axborot xati bilan tasdiqlangan «Arterial gipertenziya va surunkali buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda perindopril va indapamidning kombinatsiyalangan terapiyasining klinik samaradorligi» metodik tavsiyalar mazmuniga kiritildi. Ko'rsatilgan takliflar RIKIATMning Toshkent viloyati filiali 26.08.2024-yildagi №54-sonli buyrug'i va RIKIATMning Sirdaryo mintaqaviy filialining 28.09.2024-yildagi №75-sonli buyrug'i asosida amaliyotga joriy etildi. Ijtimoiy samaradorlik: AG va SBB bo'lgan bemorlarda erta tashxis qo'yish va davolash taktikasini tanlashga yordam beradi, asoratlar va nogironlik rivojlanishining oldini oladi. Iqtisodiy samaradorlik: AG va SBB bo'lgan bemorlarni erta tashxislash va davolashda differensial yondashuv sog'liqni saqlash resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi.

*Uchinchi ilmiy yangilik:* PTTT tezlashishi bilan bog'liq bo'lgan hKFT va AU chegaraviy qiymatlari aniqlangan. KFT 55,5 ml/daq/1,73m<sup>2</sup> qiymatga teng yoki undan past bo'lganda PTTT tezlashishi prognoz qilindi. AU ning chegara qiymati 39,2 mg/l ga teng yoki undan yuqori bo'lganda PTTT tezlashishi prognoz qilindi. SBK markerlarini chegara qiymatini aniqlanishi PTTT tezlashishini prognoz qilishda namoyon bo'ldi. Taklif etilgan tashxislash taktikasi yondashuvlari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy kardiologiya markazi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2024-yil 29-maydagi №6-sonli axborot

xati bilan tasdiqlangan «Arterial gipertenziya va surunkali buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda perindopril va indapamidning kombinatsiyalangan terapiyasining klinik samaradorligi» metodik tavsiyalar mazmuniga kiritildi. Ko'rsatilgan takliflar RIKIATMning Toshkent viloyati filiali 26.08.2024-yildagi №54-sonli buyrug'i va RIKIATMning Sirdaryo mintaqaviy filialining 28.09.2024-yildagi №75-sonli buyrug'i asosida amaliyotga joriy etildi. Ijtimoiy samaradorlik: AG va SBB bo'lgan bemorlarda erta tashxis qo'yish va davolash taktikasini tanlashga yordam beradi, asoratlar va nogironlik rivojlanishining oldini oladi. Iqtisodiy samaradorlik: AG va SBB bo'lgan bemorlarni erta tashxislash va davolashda differensial yondashuv sog'liqni saqlash resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi.

*To'rtinchi ilmiy yangilik:* AG va SBK bilan og'riqan bemorlarga nefroprotektiv maqsadda antigipertenziv terapiya sifatida ikki komponentli perindopril va indapamid bilan davolash tavsiya etiladi. Taklif etilgan davolash taktikasi yondashuvlari Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy kardiologiya markazi Muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2024-yil 29-maydagi №6-sonli axborot xati bilan tasdiqlangan «Arterial gipertenziya va surunkali buyrak kasalligi bo'lgan bemorlarda perindopril va indapamidning kombinatsiyalangan terapiyasining klinik samaradorligi» metodik tavsiyalar mazmuniga kiritildi. Ko'rsatilgan takliflar RIKIATMning Toshkent viloyati filiali 26.08.2024-yildagi №54-sonli buyrug'i va RIKIATMning Sirdaryo mintaqaviy filialining 28.09.2024-yildagi №75-sonli buyrug'i asosida amaliyotga joriy etildi. Ijtimoiy samaradorlik: AG va SBB bo'lgan bemorlarda erta tashxis qo'yish va davolash taktikasini tanlashga yordam beradi, asoratlar va nogironlik rivojlanishining oldini oladi. Iqtisodiy samaradorlik: AG va SBB bo'lgan bemorlarni erta tashxislash va davolashda differensial yondashuv sog'liqni saqlash resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etildi, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etildi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslanib, uning maqsad va vazifalari belgilangan, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Arterial gipertenziya va surunkali buyrak kasalligi bilan og'rigan bemorlarda arterial qattqlikning klinik va diagnostik ahamiyati**" deb nomlangan **birinchi bobida** mavzuga oid mintaqaviy va xalqaro ilmiy tadqiqotlar batafsil tahlil qilingan. Adabiyotlar sharhi bobi 3 ta kichik bobdan iborat bo'lib, unda arterial gipertenziya surunkali buyrak kasalligining xavf omili sifatida, arterial gipertenziyada arterial qattqlikning o'rni va uni tuzatish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**Klinik material va tadqiqot usullarining umumiy tavsifi**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot materiallari va usullari, tadqiqotga kiritilgan bemorlar va qo'llanilgan usullarning tavsifi, shuningdek, olingan natijalarni baholashda foydalanilgan statistik usullar keltirilgan. Ish RIKIATM bazasida 2022-yildan 2024-yilgacha olib borilgan. RIKIATM kardiometabolik buzilishlar bo'limida statsionar va ambulator davolangan jami 1070 nafar bemor tekshiruvdan o'tkazilgan.

Retrospektiv tadqiqotga 1000 ta kasallik tarixi kiritilgan. ikkilamchi AG, miokard infarkti, miya qon aylanishining o'tkir buzilishi, NYHA bo'yicha III-IV funksional sinf (FS) yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar tahlilga kiritilmagan. Bemorlarning o'rtacha yoshi  $62,83 \pm 10,29$  yosh bo'lib, ularning 440 nafari erkak, 560 nafari ayol bo'lgan. 947 (94,7%) bemorning anamnezida YUIK mavjud bo'lgan. 62,8% bemorlarda SYUYE I-II FS kuzatilgan. 374 (37,4%) bemor 2-tur qandli diabet (2-QD) bilan og'rigan (1-jadval).


**1-jadval**

**Bemorlarning klinik tavsifi (retrospektiv tahlil n=1000)**

| Ko'rsatkich                          | N   | %    |
|--------------------------------------|-----|------|
| Erkaklar                             | 440 | 44   |
| Ayollar                              | 560 | 56   |
| Semizlik (TVI $>30 \text{ kg/m}^2$ ) | 579 | 57,9 |
| Nazorat ostidagi AG                  | 392 | 39,2 |
| AG 1-daraja                          | 364 | 36,4 |
| AG 2 -daraja                         | 197 | 19,7 |
| AG 3 -daraja                         | 47  | 4,7  |
| YuIK                                 | 947 | 94,7 |
| 2-QD                                 | 374 | 37,4 |
| SYuYe,I-II NYHA                      | 628 | 62,8 |

Bemorlarda AG davomiyligi  $10,78 \pm 4,12$  yilni tashkil etdi. Oʻrtacha SAB/DAB  $134,23 \pm 20,31 / 83,75 \pm 10,41$  mm sim. ust. boʻldi. Tekshirilgan bemorlarning 59,2% (n=592) maqsadli AB darajasiga (<140/<90 mm sim. ust.) erishdi.

Komorbid holatlarning SBK rivojlanishiga taʼsirini aniqlash maqsadida chiziqli regressiya tahlili oʻtkazildi. Regression koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqib, GK, YuIK, 2-QD va SYuYe omillari SBK rivojlanish ehtimoli bilan toʻgʻri bogʻliqlikka ega ekanligi aniqlandi. GK SBK rivojlanish ehtimolini 4,42 baravarga (95% IH: 1,02-20,91), YuIK mavjudligi SBK ehtimolini 4,76 baravarga (95% ishonch oraligʻi (IO): 2,65-8,54), SYuYe mavjudligi SBK ehtimolini 4,32 baravarga (95% IO: 1,06-9,46) va 2-QD SBK ehtimolini 1,43 baravarga (95% IO: 1,02-1,99) oshiradi (1-rasm).



**1-rasm. Komorbid holatlarning SBK rivojlanish xavfiga taʼsiri.**

Prospektiv tadqiqot uchun nazorat qilinmagan AG (1-3 bosqich), SBK S2-S3b bosqichli 40 yoshdan 70 yoshgacha boʻlgan 70 nafar bemor kiritildi. Tadqiqotga ikkilamchi AG, 2-tur QD, SBK S4-S5 ( $KFT < 30$  ml/min/ $1,72m^2$ ), NYHA boʻyicha SYUYE III-IV FS, yurak ritmi buzilishi, OʻKS, anamnezida BMQAOʻB, IKKS, yurak nuqsoni boʻlgan bemorlar kiritilmadi. Bemorlarning oʻrtacha yoshi  $57,63 \pm 6,73$  yosh edi. Bemorlar orasida 23 nafar (32,8%) erkak va 47 nafar (67,1%) ayol bor edi. Oʻrtacha SAB/DAB  $152,24 \pm 9,01 / 88,43 \pm 7,55$  mm sim. ust. boʻldi. Bemorlarda AG davomiyligi  $9,31 \pm 3,83$  yilni tashkil etdi. Bemorlar orasida ortiqcha vazn va semizlikning yuqori tarqalganligi kuzatildi (mos ravishda 43,3% va 46,3%). Yondosh holatlardan YUIK (29,9%) va SYUYE I-II FS (28,4%) uchrab turdi (2-jadval).

**Bemorlarning klinik tavsifi (prospektiv tahlil n=70)**


| KO'RSATGICHLAR                                | N  | %     |
|-----------------------------------------------|----|-------|
| Erkaklar, % (n)                               | 24 | 34,3  |
| Ayollar, % (n)                                | 46 | 65,7% |
| Semizlik (BMI >30, кг/м <sup>2</sup> ), % (n) | 29 | 43,3% |
| YUIK, % (n)                                   | 20 | 29,9% |
| Yurak yetishmovchiligi, % (n)                 | 19 | 28,4% |

Tadqiqot jarayonida klinik tekshiruv ma'lumotlari (ofis arterial bosimi, antropometriya (vazn, bo'y, tana vazni indeksi va bel aylanasi)), laboratoriya diagnostikasi natijalari (lipid spektri, kreatinin, albuminuriya, hisoblangan koptokcha filtratsiya tezligi, siydik kislotasi), asbobiy tekshiruv ma'lumotlari (EKG, sutkalik arterial bosim monitoringi, dopplerografiya bilan exokardiografiya, uyqu arteriyalari ultratovush tekshiruvi, applanatsion tonometriya) baholandi.

Prospektiv tadqiqot uchun tanlangan bemorlarda tekshiruv natijalarini baholash perindopril/indapamidning fiksatsiyalangan kombinatsiyasi bilan davolash buyurilganidan 6 oy o'tgach dinamikada o'tkazildi. Bu preparatning antigipertenziv, nefroprotektiv va angioprotektiv samaradorligini tahlil qilish maqsadida amalga oshirildi.

Olingan ma'lumotlar SPSS 27.0 dasturiy paketi yordamida qayta ishlandi. Normal taqsimotga ega bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda quyidagilardan foydalanildi: Student t-mezoni (2 ta taqqoslanayotgan guruh uchun) va bir omilli dispersiya tahlili (ANOVA) (taqqoslanayotgan guruhlar soni 3 va undan ortiq bo'lganda). Normal taqsimotdan farq qiluvchi miqdoriy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda quyidagi usullar qo'llandi: Mann-Uitni mezon (2 ta mustaqil guruhni taqqoslashda) va Kraskel-Uollis mezon (taqqoslanayotgan guruhlar soni 3 va undan ortiq bo'lganda). Nominal ko'rsatkichlarni tahlil qilishda Fisherning aniq mezon va Pirsonning  $\chi^2$  mezonidan foydalanildi. Ikki bog'liq guruhni taqqoslash uchun juft t-mezon (parametrik ko'rsatkichlar uchun), Uilkokson mezon (nparametrik ko'rsatkichlar uchun) va MakNemar sinovi (nominal ko'rsatkichlar uchun) qo'llanildi. Ko'rsatkichlarning korrelyatsion tahlili o'tkazildi, bunda Pirson va Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyentlaridan foydalanildi. Prognostik modelni ishlab chiqishda juft chiziqli regressiya, ko'p o'lchovli chiziqli regressiya va ROC-tahlil usullari qo'llanildi. Statistik ishlov natijasida olingan ma'lumotlar  $p < 0,05$  bo'lganda ishonchli deb hisoblandi.

### Tadqiqot dizayni



Dissertatsiyaning "**Shaxsiy tadqiqotlar natijalari**" deb nomlangan **uchinchi bobi** besh qismdan iborat bo'lib, unda AG bilan og'riqan bemorlarda SBK markerlarining tarqalishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, AG bilan og'riqan bemorlarda arterial qattqlik va AB sutkalik profilining xususiyatlari hamda ularning buyraklarning funksional holati bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilgan. AG va SBK bilan og'riqan bemorlarda markaziy gemodinamika ko'rsatkichlari va biokimyoviy markerlar tavsiflanib, perindopril va indapamidning fiksatsiyalangan kombinatsiyasining antigipertenziv va nefroprotektiv samaradorligi baholangan. Bundan tashqari, ushbu kombinatsiyaning AG va SBK bilan og'riqan bemorlarda chap qorincha remodellanishi va qon tomir qattqligiga ta'siri o'rganilgan.

AG bilan og'riqan bemorlar orasida SBK markerlarining tarqalishini tahlil qilish shuni ko'rsatkiki, 269 (26,9%) nafar bemorda hKFT <60 ml/min/1,73m<sup>2</sup> pasayishi aniqlandi. Bunda o'rtacha (C3a) va sezilarli darajada (C3b) KFT pasaygan bemorlar ustunlik qildi (mos ravishda n=178 va n=61, yoki KFT pasaygan barcha bemorlarning 66,2% va 22,6%) (3-jadval).

**Jadval 3**

**Bemorlarning KFT toifasiga qarab taqsimlanishi**

| KFT toifasi | KFT                               | N   | %     | Me (Q <sub>1</sub> -Q <sub>3</sub> ) |
|-------------|-----------------------------------|-----|-------|--------------------------------------|
| C1          | >90 ml/min/1,73m <sup>2</sup>     | 226 | 22,6  | 97 (92-104)                          |
| C2          | 60-89,9 ml/min/1,73m <sup>2</sup> | 505 | 50,5* | 74 (67-81)                           |
| C3a         | 45-59,9 ml/min/1,73m <sup>2</sup> | 178 | 17,8  | 55 (50-57)                           |
| C3b         | 30-44,9 ml/min/1,73m <sup>2</sup> | 61  | 6,1   | 37 (36-42)                           |
| C4          | 15-29,9 ml/min/1,73m <sup>2</sup> | 27  | 2,7   | 23 (19-28)                           |
| C5          | <14,4 ml/min/1,73m <sup>2</sup>   | 3   | 0,3   | 6 (3-7)                              |

AU tahlili natijasida normoalbuminuriya bo'lgan bemorlar ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi ( $\chi^2=67.945$ ,  $p<0,001$ ). Bemorlarning AU toifasi bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha bo'ldi (4-jadvalga qarang).

**Jadval 4.**

**Bemorlarning AU toifasiga qarab taqsimlanishi (n=1000)**

| AU toifasi | AU          | N   | %     | Me (Q <sub>1</sub> -Q <sub>3</sub> ) |
|------------|-------------|-----|-------|--------------------------------------|
| A1         | <30 mg/l    | 576 | 57,6* | 13,8 (6,0-21,5)                      |
| A2         | 30-300 mg/l | 389 | 38,9  | 49,0 (38,4-72,7)                     |
| A3         | >300 mg/l   | 35  | 3,5   | 462,2 (368,8-449,4)                  |

KFT va AU ma'lumotlari asosida bemorlarda YuQTK rivojlanishi va SBK zo'rayishining umumlashgan xavfi hisoblab chiqildi (KDIGO, 2012). Umumiy kogorta ichida YuQTK xavfi past bo'lgan bemorlar ko'pchilikni tashkil etdi ( $\chi^2=60,618$ ,  $p<0,001$ ). Tekshirilganlarning 16,9%da SBK zo'rayishi va YuQTK rivojlanishining yuqori/juda yuqori xavfi aniqlandi (5-jadval).

Jadval 5

## YQTK asoratlarning xavfi va SBK rivojlanishi bo'yicha bemorlar taqsimoti

| Xavf toifasi     | N   | %    |
|------------------|-----|------|
| Past xavf        | 440 | 44*  |
| O'rta xavf       | 395 | 39,5 |
| Yuqori xavf      | 97  | 9,7  |
| Juda yuqori xavf | 68  | 6,8  |

ABSP (arterial bosimi sutkalik profili) ma'lumotlarini tahlil qilishda (6-jadval) SBK S4 bemorlarida o'rt.sut.SAB va o'rt.kun.SAB ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yuqori qiymatlari aniqlandi. o'rt.sut SAB:  $118,73 \pm 11,56$  vs  $119,22 \pm 14,32$  vs  $121,73 \pm 14,49$  vs  $129,21 \pm 15,38$  vs  $131,27 \pm 12,29$  mm sim.ust., mos ravishda,  $p=0,001$ . O'rt.kun.SAB:  $120,25 \pm 11,66$  vs  $121,63 \pm 11,91$  vs  $123,43 \pm 14,81$  vs  $129,75 \pm 15,08$  vs  $133,01 \pm 12,49$  mm sim.ust., mos ravishda,  $p=0,001$ . KFTning past qiymatlari bo'lgan bemorlarda tungi SAB o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi, ammo statistik jihatdan ahamiyatli emas edi. O'rt.tun.SAB:  $114,61 \pm 17,89$  vs  $114,49 \pm 14,41$  vs  $116,41 \pm 16,48$  vs  $128,76 \pm 17,07$  vs  $128,18 \pm 12,23$  mm sim.ust., mos ravishda,  $p=0,749$ . DABning o'rtacha sutkalik, kunduzgi va tungi ko'rsatkichlari guruhlarda sezilarli darajada farq qilmadi.

Variabellik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, buyrak funksiyasining pasayishi bilan kunduzgi SAB va DAB tebranishlari oshishi aniqlandi, tungi vaqtda esa sezilarli farq kuzatilmadi. Var.SAB.kun:  $12,0(10,0-15,0)$  vs  $13,0(11,0-16,0)$  vs  $12,0(10,0-16,0)$  vs  $12,0(9,25-17,25)$  vs  $15,0(12,0-21,0)$  mm sim.ust., mos ravishda,  $p=0,034$ . Var.DAB.kun:  $10,0(7,5-12,0)$  vs  $11,0(9,0-14,0)$  vs  $9,0(7,0-12,0)$  vs  $9,0(7,25-11,0)$  vs  $11,0(8,0-12,0)$  mm sim.ust., mos ravishda,  $p=0,002$ .

KFT pasaygan bemorlarda kunduzgi va tungi vaqtda yuqori SAB vaqt indeksining sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlari qayd etildi. Vaqt ind.SAB kun.:  $5,0(0,0-14,3)$  vs  $5,4(0,0-15,7)$  vs  $3,8(0,0-18,9)$  vs  $17,55(0,0-35,3)$  vs  $25,5(9,3-61,0)\%$ , mos ravishda,  $p=0,047$ . Vaqt ind.SAB tun.:  $14,3(0,0-34,5)$  vs  $12,8(0,0-38,3)$  vs  $18,5(0,0-51,3)$  vs  $38,5(7,97-100,0)$  vs  $47,6(27,8-84,1)\%$ , mos ravishda,  $p=0,027$ .

Shuningdek, bemorlarning SAB va DAB bo'yicha "dipping" holati tahlili o'tkazildi. Buyrak funksiyasi saqlangan bemorlar orasida ( $KFT > 60$  ml/min/1,73m<sup>2</sup>) SAB bo'yicha "dipper"lar va "non-dipper"lar ko'proq bo'lganligi aniqlandi, ammo bu statistik jihatdan ishonchli emas edi (SBK C1  $p=0,945$ ; SBK C2  $p=0,397$ ).  $KFT < 60$  ml/min/1,73m<sup>2</sup> pasaygan bemorlarda ko'pincha tungi SABning yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi, ya'ni ular "night-picker"lar toifasiga kirdi. DAB bo'yicha tungi pasayish darajasi (TPD) SBK S1 va S2 guruhida "dipper"lar va "non-dipper"lar soni sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. SBK C4 bilan og'riq bemorlar DAB bo'yicha "night-picker"larning ustunligi bilan ajralib turdi.

Jadval 6

## AG va SBK bemorlarda SABP ko'rsatkichlarini KFT kategoriyasiga qarab tahlil qilish (n=390)

| Ko'rsatkichlar                                    |              | SBK C1<br>(n=101) | SBK C2<br>(n=193) | SBK C3a<br>(n=65) | SBK C3b<br>(n=20) | SBK C4<br>(n=11) | p     |
|---------------------------------------------------|--------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|------------------|-------|
| O'rtacha sutkalik SAB mm sim.ust                  |              | 118,73±11,56      | 119,22±14,32      | 121,73±14,49      | 129,21±15,38      | 131,27±12,29     | 0,001 |
| O'rtacha sutkalik DAB mm sim.ust                  |              | 71,68±8,96        | 71,68±8,29        | 70,35±9,53        | 70,91±10,11       | 66,6±5,92        | 0,417 |
| O'rtacha kunduzgi SAB mm sim.ust                  |              | 120,25±11,66      | 121,63±11,91      | 123,43±14,81      | 129,75±15,08      | 133,01±12,49     | 0,001 |
| O'rtacha kunduzgi DAB mm sim.ust                  |              | 72,77±9,38        | 73,05±8,47        | 71,80±10,13       | 71,71±10,77       | 67,91±5,57       | 0,442 |
| O'rtacha tungi SAB mm sim.ust                     |              | 114,61±17,89      | 114,49±14,41      | 116,41±16,48      | 128,76±17,07      | 128,18±12,23     | 0,749 |
| O'rtacha tungi DAB mm sim.ust                     |              | 68,15±9,22        | 67,87±9,17        | 67,01±9,32        | 68,75±9,52        | 63,73±7,32       | 0,746 |
| Qon bosimining<br>variabelligi,<br>mm sim.ust     | SAB kunduzgi | 12,0(10,0-15,0)   | 13,0(11,0-16,0)   | 12,0(10,0-16,0)   | 12,0(9,25-17,25)  | 15,0(12,0-21,0)  | 0,034 |
|                                                   | DAB kunduzgi | 10,0(7,5-12,0)    | 11,0 (9,0-14,0)   | 9,0(7,0-12,0)     | 9,0(7,25-11,0)    | 11,0(8,0-12,0)   | 0,002 |
|                                                   | SAB tungi    | 11,00 (7,5-13,5)  | 11,0(8,0-14,0)    | 11,0 (9,0-15,0)   | 9,5 (7,25-13,75)  | 12,0(9,0-15,0)   | 0,469 |
|                                                   | DAB tungi    | 9,0 (6,0-11,0)    | 9,0 (7,0-11,0)    | 9,0 (7,0-11,0)    | 8,0(7,0-12,0)     | 9,0(7,0-10,0)    | 0,738 |
| Vaqt indeksi, %                                   | SAB kunduzgi | 5,0 (0,0-14,3)    | 5,4 (0,0-15,7)    | 3,8 (0,0-18,9)    | 17,55(0,0-35,3)   | 25,5 (9,3-61,0)  | 0,047 |
|                                                   | DAB kunduzgi | 1,3 (0-11,4)      | 2,4 (0,0-13,8)    | 0,0 (0,0-5,45)    | 0,0 (0,0-9,87)    | 4,1 (0,0-6,8)    | 0,198 |
|                                                   | SAB tungi    | 14,3 (0,0-34,5)   | 12,8 (0,0-38,3)   | 18,5(0,0-51,3)    | 38,5(7,97-100,0)  | 47,6 (27,8-84,1) | 0,027 |
|                                                   | DAB tungi    | 16,7 (0,0-51,3)   | 11,5 (0,0-44,2)   | 7,8(0,0-35,2)     | 16,8(0,0-55,4)    | 10,7(0,0-13,9)   | 0,651 |
| SABning ertalabki ko'tarilish tezligi, mm sim.ust |              | 10(0,0-13,9)      | 9,0(-9,0-19,5)    | 12,0(0,0-21,0)    | 0,5(-18,0-12,7)   | 6,0(-26,0-26,0)  | 0,188 |
| DABning ertalabki ko'tarilish tezligi, mm sim.ust |              | 4,0(-10,0-14,0)   | 7,0(-8,5-15,5)    | 10,0(5,0-16,0)    | -14,0(-18,0-8,0)  | 6,0(-11,0-30,0)  | 0,026 |

ABSP tahlili shuni ko'rsatdiki (7-jadval), ko'proq ifodalangan AU bo'lgan bemorlarda kunduzgi va tungi SABning sezilarli darajada yuqori qiymatlari kuzatildi (mos ravishda,  $p=0,001$  va  $p=0,072$ ) va bu o'rtacha sutkalik SABning yuqori qiymatlariga ta'sir ko'rsatdi ( $p=0,001$ ). Shuni ta'kidlash kerakki, A3 bo'lgan bemorlar guruhida o'rtacha sutkalik SABning maqsadli darajasiga erishilmadi. O'rtacha sutkalik DAB va o'rtacha kunduzgi DAB A3 bemorlar guruhida (mos ravishda  $p=0,05$  va  $p=0,032$ ) A2 va A1 bemorlar guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

AB variabelligini tahlil qilib, shuni ta'kidlash kerakki, juda yuqori AU kunduzgi SABning statistik jihatdan sezilarli o'zgarishi bilan ajralib turdi ( $p=0,014$ ), kunduzgi DAB, tungi SAB va DAB esa guruhlar o'rtasida unchalik farq qilmadi. Kunduzgi va tungi vaqtda yuqori SAB vaqt indeksi juda yuqori AUli bemorlarda sezilarli darajada yuqori bo'lgan ( $p=0,001$ ;  $p=0,001$ ), biroq DAB ko'rsatkichlari sezilarli farq ko'rsatmagan ( $p=0,171$ ;  $p=0,225$ ). SAB va DABning ertalabki ko'tarilish tezligi guruhlar o'rtasida sezilarli farq ko'rsatmadi ( $p=0,713$ ;  $p=0,973$ ).

AU darajasi ortib borishi bilan SAB va DAB bo'yicha "night-picker"lar va "over-dipper"lar soni ham ortib bordi ( $p=0,001$ ;  $p=0,001$ ). Optimal AUli bemorlar orasida SAB bo'yicha "dipper"lar va "non-dipper"lar ustunlik qildi ( $p=0,025$ ;  $p=0,001$ ). A1 bemorlar guruhida DAB bo'yicha "dipper"lar soni ishonchli tarzda yuqori bo'ldi ( $p=0,001$ ). DAB bo'yicha "non-dipper" profili bo'lgan bemorlar birinchi guruhda ko'proq uchradi, ammo bu ma'lumotlar statistik jihatdan ahamiyatli emas ( $p=0,789$ ).

**Jadval 7.**

**AG va SBK bilan og'rigan bemorlarda AU toifasiga qarab SABP ko'rsatkichlarining tahlili**

| Ko'rsatkichlar                                    |              | A1 (n=216)       | A2 (n=159)      | A3 (n=15)         | P     |
